

**OILANING PSIXOLOGIK MUSTAHKAMLIGINI TA'MINLASHNING
MUHIM VAZIFALARI**

Ravshanqulova Latofat Abdujalilovna

*Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani 9 - sonli Kimyo va biologiya fanlari
chuqur o'rganishga ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya: Oila – bu nikohga yoki qon-qarindoshlik aloqalariga (ona va bolalar) asoslangan kichik guruh bo'lib, uning a'zolari kundalik hayot, o'zaro ma'naviy mas'uliyat va o'zaro yordam rishtalari vositasida bir-biri bilan bog'lanadi.

Kalit so'zlar: mutloqot, munosabat, psixologik ko'nikmalar, tarbiya, ruhiyat, psixik jarayonlar

KIRISH

Oilaning kommunikativ vazifasi oila a'zolarining o'zaro muloqot va o'zaro tushunishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Psixologik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, turli ijtimoiy orientatsiyalar, ustanovkalar, xissiy madaniyat, odamning ahloqiy, ma'naviy va psixologik salomatligi-oiladagi o'zaro, ichki muloqot xarakteri, oiladagi katta a'zolarining muloqotda psixologik ustanovkalarni namoyon qilishlari, oiladagi ahloqiy-psixologik iqlimga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Oilaviy munosabatlar – ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar (buva-buvilar) hamda farzandlar o'rtasida turli yo'nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlardir. Muloqot- shaxslararo munosabatlar va o'zaro ta'sirning alohida shakli. U 3 xil ko'rinishda bo'ladi:

- 1) o'zaro fikr almashinuv (kommunikativ ko'rinish).
- 2) o'zaro ta'sir ko'rsatishi (interaktiv ko'rinish).
- 3) o'zaro bir-birini tushunish (pertseptiv ko'rinish).

Kommunikativ muloqot 2 xil ko'rinishda bo'ladi: 1. Verbal; So'z va uning ma'nosi orqali amalga oshiriladi. Verbal muloqot bu nutq.

Нoвepбaл мuloqoт bu нutqсiz мuloqoтhisobлanadi. Bularga: imo-ishoralar, tovush tembri ,intonatsiya ,yuz qiyofasi ,kiyimi, tana harakati ,suhbatdosh bilan masofa orqali amalga oshadi.Biz asosiy ma'lumotni o'zga kishilar bilan suhbatda 10-30% gacha verbal kommunikatsiyadan olamiz, 65-80% ma'lumotni esa noverbal kommunikatsiyadan olamiz. Noverbal ishoralarning miqdori va sifati insonning yoshiga bog'liq, masalan, bolalardagi noverbal ishoralar katta yoshli odamlamikiga ko'ra oson tushuniladi. Bundan tashqari, bunga jins turi, odam tabiati, ijtimoiy maqomi, millati ta'sir o'tka- zadi. Masalan, ingliz psixologi ma'lumotiga ko'ra, bir soatli suhbat davomida finlyandiyalik - 1 ta, italiyalik - 80 ta, fransuz - 120 ta va meksikalik - 120 imo-ishoradan foyda- lanar ekan.

Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar tuzilishi turli xil ko'rinishda bo'ladi:

- 1.Buva va buvi hamda oilaning qolgan barcha a'zolari aloqasi;
- 2.Ota-onaning o'zaro munosabatlari;
3. Ota-ona va farzandlar orasidagi muloqot;
4. Farzandlarning o'zaro munosabatlari tartibi;
- 5.Kelinning barcha oila a'zolari bilan munosabatlari;
- 6.Kelinlarning (ovsinlar) o'zaro muloqot qilishlari kabilar.

Oilada shaxslararo muloqotni ikkiga ajratiladi:

- 1.Ijobiy –Oilani mustahkamlovchi muloqot
- 2.Salbiy – Oilani zil ketishiga olib keluvchi muloqot.

Oilaning ijobiy muloqotini ko'proq rivojlantirish kerak. Buning uchun eng avvalo ota-onada bilim darajasi yetarli bo'lishi, keyin esa farzandiga muomula madaniyatini o'rgata oladi.Agarda ota-onada o'sha bilim, madaniyat bo'lmasa bolasiga qanaqangi bilim bera oladi. Shuning uchun ham ota-onaning bilim saviyasi, muloqot madaniyati va farzandlar bilan oshkora muloqot qilishiga ko'proq e'tibor berilsa manimcha yomon bo'lmaydi.

Odamlar bilan muomula qilish san'ati ham har bir kishidan katta mahoratni talab qiladi.

Oiladagi muloqotga ta'sir etuvchi to'siqlar:

- 1.Ahloqsizlik

2.Bilimsizlik

3.Huquqni buzilishi

4.Urf-odatlarni bajarilishdagi kamchiliklar

5.Yoshlarning uquvsizligi

Biroq hozirgi kunda ba'zi oilalarda ota-onalar va bolalar o'rtasida muloqotning kamligi, bir-biriga e'tiborning pasayishi, oila a'zolari o'rtasida fikr erkinligining cheklanganligi, holatlari mavjud, hatto oiladagi o'zaro munosabatlarning yomonlashuvi natijasida oila a'zolarining ayrimlarida stress (asabiy tanglik), suitsid (o'z joniga qasd qilish) kabi noxush holatlarning kelib chiqishi ham ko'plab kuzatilmoqda. Bunday noxush holatlarni oldini olish uchun eng avvalo oila a'zolari o'rtasida oshkora, yaqin, o'zaro tushunishli, ishonchli muloqotning amalgam oshishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, lozim bo'lsa, bu borada, yoshlarga tegishli bilimlarni berish, aholi uchun ota-onalar psixologik maslahatxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish, ota-onalar uchun treninglar tashkil etish borasidagi ishlarni takomillashtirish lozim. Darhaqiqat, Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek: "Oila sog'lom ekan jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan- mamlakat barqarordir".

Oila bir jamiyatning bo'g'inini tashkil etadi. Agarda oila barqaror bo'lsa, jamiyat gullab-gurkirab yashnaydi. Har qanday jamiyat taraqqiyotida oilalarning, oilalar mustah- kamligining o'rni beqiyosdir. Chunki tirik organizmning salomatligi uni tashkil qiluvchi har bir hujayraning sog'lomligiga bog'liq bo'lganidek, butun organizm o'z faoliyatini maqsadga muvofiq amalga oshirishida har bir hujayraning munosib o'rni bo'lganidek, oila ham davlat, jamiyat deb atalgan butun bir organizmni tashkil etuvchi hujayradir. Har bir oilaning sog'lom bo'lishi, ularda ijobiy psixologik iqlimning hukm surishi, mana shu muhitda dunyoga kelib, shaxs sifatida shakllanib, so'ng o'zi yashayotgan davlatning fuqarosi sifatida o'z davlatining iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti taraqqiyotini ta'minlovchi, hal qiluvchi omil bo'lgan inson kamolotida oilaning tutgan o'rni beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir, hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega.

Demak, jamiyat taraqqiyotining bugungi holati hozirgi zamon oilasi oldiga o'ziga xos yangi ijtimoiy vazifalarni ham yuklaydiki, bularning barchasi hozirgi yoshlarimizni oilaviy hayotga maxsus tayyorlash masalasi eng dolzarb masalalardan biri bo'lishligini taqozo qilmoqda. Shuning uchun ham so'nggi 15—20 yil davomida dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida, jumladan, bizning respublikamizda mustaqillikka erishganimizning dastlabki yillaridanoq, oila masalalariga, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oilalarda komil shaxsni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Umuman insoniyat jamiyati tobora taraqqiy etib boraverar ekan, oila masalalarining dolzarbligi ham shunga mos ravishda ortib boraveradi va oilaga bo'lgan e'tibor ham kecha va bugunga qaraganda ertaga yanada yuqoriroq bo'ladi.

Oila – bu nikohga yoki qon-qarindoshlik aloqalariga (ona va bolalar) asoslangan kichik guruh bo'lib, uning a'zolari kundalik hayot, o'zaro ma'naviy mas'uliyat va o'zaro yordam rishtalari vositasida bir-biri bilan bog'lanadi. Oilaning hozirgi holatiga jamiyatda yuz berayotgan barcha o'zgarishlar: bilimlar, texnologiyalarning yangilanishi, axborot ayirboshlash jarayonlari ta'sir ko'rsatadi. Haqiqatan ham, jamiyatning qanday qaror topishi ko'p jihatdan oilaga bog'liq. Negaki, jamiyat bamisoli bir tana bo'lsa, oila uning yuragidir. Yurakdan tanaga tarqayotgan qonning tozaligi tanani baquvvat va sog'lom tutadi. Aynan yurak tana xolatini bildiradi. Jamiyat uchun oila shunday darajada maqomga ega. Nima sababdan biz ko'proq oila va unda yuz beradigan munosabatlarga e'tiborli bo'lamiz, nima sababdan oila maskanida o'zimizni yaxshi, baxtli his etsak, ishimiz ham yurishgandek, omadimiz chopgandek bo'ladi? Chunki oila bizning hayotimizdagi eng aziz va muqaddas dargoh! Faqat oilagina insonning baxtli bo'la olishi, o'zini kimlargadir kerakli his eta olishi yoki bo'lmasa o'zini ezilgan, omadsiz sezishiga sababchi bo'lishi mumkin. Oilaning nufuzi: jamiyat taraqqiyotining kutilgan darajaga chiqa olmasligi, uning taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi, uning inqiroziga olib keluvchi kuchlarning yuzaga kelishida ham oilaning hissasi kattadir. Chunki nosog'lom psixologik muhitli, nizo-janajalli, o'zaro mehr-oqibatsiz muhitda dunyoga kelib, shakllangan bola, keyinchalik nafaqat o'z ota-onasi, aka-ukalariga

nisbatan balki atrofdagilarga, qolaversa, o'zi yashagan jamiyatga nisbatan ham mehr-oqibatsiz, shafqatsiz, zolim, xudbin, yurt manfaatlariga zid, tashqi kuchlar ta'siriga oson beriluvchan, shu asosda esa o'z oilasi, o'z xalqi, o'z yurti uchun xavfli odam bo'lib yetilishi mumkin.

XULOSA

Siz oila deb atalmish muqaddas go'sha ostonasida turibsiz. Sizning sog'lom bo'lishingiz qurilayotgan oila poydevorini mustahkam bo'lishiga olib keladi. Oilaning sha'ni va sharafi jamiyatning eng muhim qadriyati bo'lsa, oila a'zolarining salomatligi esa ularning oliy qadriyatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning "Oila va baxt haqida " 2018 yil.25.06
2. Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning "Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi" 2018-yil 19.01
- 3 V. M. Karimovaning Psixologiya fanlari doktori, professor "Oila psixologiya"2010 yil.
4. E. G'. G'oziyevning "Psixologiya ", " O'qituvchi" nashriyot- matbaa ijodiy uyi Toshkent 2013.
5. E. G'. G'oziyevning "Oila etikasi ", " O'qituvchi" nashriyot- matbaa ijodiy uyi Toshkent 2013.